# ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

***Karimova Malika Ismat qizi***
***Abduhamidov Abdulla Turobjon o`g`li***
***Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining o`qituvchilari***

Mustaqillik o‘zbek xalqiga o‘zligini anglash va anglatish, tarixi, madaniyati, xalqona urf-odatlari va qadriyatlarini tiklash, milliy o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etish uchun beqiyos imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratdi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganidek, ...jamiyatning ma‘naviy asoslarini yanada rivojlantirishda oilaning ahamiyatini yuksaltirish, har bir oilaning moddiy farovonligini oshirish muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan e‘tibor va п‘amxo‘rlik ko‘chaytirilishi zarurligiga alohida e‘tibor qaratildi .

Adabiyot har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy muammolarini ko‘tarib chiqishi va ularga javob izlashiga ko‘ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy–ma‘rifiy xususiyati, ayniqsa, xalqning milliy ruhini ifodalab berishda ko‘rinadi. Tabiiyki, bu jarayonda xalqona poetik tafakkur tarzi ijodkorning adabiy shaxsiyati darajasini namoyon qiladi. Chinakam iste‘dod egasi, xalq dilining ulkan tarjimoni Abdulla Oripov ijodida xalqona poetik tafakkur tarzi yetakchilik qiladi.

Abdulla Oripov chinakam xalqning ehtiromi va e‘tirofiga sazovor bo‘lgan shoirdir. Uning xalq ardoп‘iga, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lishining o‘ziyoq ijodkorning she‘r va dostonlari xalq ruhi va qalbining ifodasiga aylanganidan darak beradi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo‘lsa, bir umr hayotning ichida bo‘lish, o‘z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo‘lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Zero, Abdulla Oripov butun hayoti davomida o‘z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo‘lib yashab, ijod qilayotgan shoirdir. Chunki bu shoir uchun xalq mavhum tushuncha emas, u aniq mazmunga ega. Shoirning Men nechun sevaman O‘zbekistonni she‘rida aytilganidek, Xalqim, tarix hukmi seni agarda Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi, Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding, Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga? Mazkur fikrlarda shoir she‘riyatining milliy ruhiyatini belgilab beruvchi pafos ufurib turadi.

Abdulla Oripovning inson hayotini, uning orzu-umidlarini yuksak badiiy saviyada ifodalagan, umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lgan xalqona poetik tafakkur belgilari yaqqol ko‘rinib turgan asarlarini maxsus tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslik ilmining dolzarb masalalaridan biridir.

Shoir o‘z she‘rlarida badiiy mazmunga mos shakl tanlaydi. Badiiy ijoddagi xalqona ruh insoniyatning bir necha ming yillik hamrohi bo‘lgan xalq oп‘zaki ijodi motivlari, xalq badiiy tafakkuridagi yetakchi tamoyillar bilan uyп‘unlikda idrok etiladi. Ayni shuning o‘ziyoq Abdulla Oripov she‘riyatini xalqona badiiy tafakkur nuqtai nazaridan alohida o‘rganish extiyojini maydonga keltiradi. Bu esa, shubhasiz, shoir ijodidagi mazkur muammoning nazariy asoslarini, xalq donishmandligi, hikmatlar xazinasi va uning ildizlarini hamda folklor motivlarini bir butunlikda tadqiq etish masalasini keltirib chiqaradi. Yaxlit bir yaqin o‘tmishga aylangan XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida 60-yillar avlodining alohida o‘rni bor.

Garchand mustabid tuzumning mafkuraviy zuп‘umlari badiiy ijod sohasiga o‘z ta‘sirini o‘tkazishda davom etayotgan bo‘lsa ham, bir muddat hukm surgan iliqlik davrida adabiyot maydoniga yangi bir avlod kirib keldi. Bu avlod ijodida milliy o‘zlikni anglash, Vatanni e‘zozlash, milliy urf-odatlarni tarп‘ib-tashviq qilish, milliy his-tuyп‘ularni tarannum etish tamoyillari yetakchilik qilar edi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Omon Matjon kabi shoirlar bu adabiy avlodning yetakchi shoirlari sanaladi. Davrning tabiiy bir ehtiyoji bu avlod zimmasiga an‘anaviy she‘riyatni yangilash va badiiy tafakkurda teranlashuvdek ulkan bir vazifani yuklagan edi. Ijod ahli xalq diliga yaqinlashdi, xalqning dardu alamlariga sheriklik tuyп‘ularini ilgari surdi; ramzlar vositasida o‘z millatining tutqunlikdan ozod bo‘lishdek ezgu istagini bayon qildi. Bu avlod vakillari ijodida xalqona poetik tafakkurga xos belgilar paydo bo‘ldi. Abdulla Oripovning O‘zbekiston she‘ri, Erkin Vohidovning O‘zbegim qasidasi, Omon Matjonning Haqqush qichqiriп‘i va boshqa shoirlarning qator turkumlari xalqimiz qalbida chuqur iz qoldirdi. Milliy fikr tarbiyasiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi.

Abdulla Oripovning butun ijodi badiiy til mahorati borasidagi ulkan va betakror ibrat maktabidir.

Ta’kidlash lozimki, Abdulla Oripov xalq tilining rango-rang boyliklarini juda katta zavq-shavq va teran ilmiy idrok bilan egallagan. Diqqatga molik biron-bir voqea-hodisadir, urf-odatdir, iboradir, so‘zdir adi ularni bevosita xalqning ichidan izlaydi, ularning ma’no qamrovlari, injaliklari, siru sinoatlarini xalq lafzining o‘zidan o‘rgandi. Voqelikini obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda iboralarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Iboralar, umuman olganda, hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish jarayonida maqbul va nomaqbul harakat-holatlani baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Shuning uchun ham iboralar, tilshunos A. Mamatov ta’kidlaganidek, “ u yoki bu xalqning yashyotgan joyining tabiati, iqtisodiy tizimi, tarixi, madaniyati, hayot tarsi, oп‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, urf-odati, dini kabilar bilan boп‘lanadi”[3]. Shu bilan birga ” turп‘un vositalarni badiiy mahsulni barkamollashtiruvchi elementga aylantirish uchun yozuvchi tadqiq etayotgan davrni, vaziyatni, mavzuni, ayni vaqtda konteksni badiiy jarayonning tutash xalqalari sifatida diqqat markazida tutish kerak”.

Har qanday yozuvchi yoki shoirning ijodiy kamolotga erishuvi, eng avvalo, uning milliy п‘oya va qadriyatlarga sadoqati hamda ularni o‘z ijodida poetik jihatidan nechoп‘lik mahorat bilan yuksak darajada ifodalay olish imkoniyaiga boп‘liq. O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri, Navoiy mukofoti sovrindori Abdulla Oripovning el qalbiga yo‘l topib uning mehru muhabbatiga sazovor bo‘lganligining ham sababi shunda. Abdulla Oripov ijodi nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki umumturkiy adabiyot kontekstida o‘ziga xos mavqega ega. Mazkur tadqiqot ichida ana shu betakrorlikni, o‘ziga xoslikni, shoir mahoratini namoyon qiluvchi, yuzaga chiqaruvchi til vositalarining qay dajada qo‘llanganligini yuzaga chiqaruvchi til vositalarininh qay darajada tadqiq etishga harakat qilingani uning dolzarbligini ifodalaydi. Abdulla Oripov she’riyati jamiyatni tutib turgan barcha qonun-qoidalar,

zamondoshlarining muammolari turli obraz va badiiy san’atlar vositasida mohirona aks ettirgan.

## ADABIYOTLAR:


1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. «Xalq so‘zi» gazetasi. 20 yanvar
2. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san‘atlar: Filol.fan.nomzodi...dis. – Toshkent : 1997. –B. 142 .
3. Ashurova G. Abdulla Oripov she‘riyatida an‘ana va badiiy mahorat (obraz, п‘oya va tasvir). Filol.fanlari nomzodi.....diss. avtoref.- Toshkent : 2008, -B. 26.
4. Eshonqulova, S. (2020). Nodira ijodida Iso-Masih timsoli. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7315
5. Eshonqulova, S. (2020). Nodira she’riyatida Xizr obrazining badiiy talqini. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7319
6. Eshonqulova, S. (2020). Nodira ijodida Jamshid obrazi tasviri. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7343
7. Eshonqulova, S. (2020). Nodira merosida раyп‘ambar Muhammad (s.a.v.) siymosi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7317
8. Eshonqulova, S. (2020). Bayramxon va Nodirabegim she’riyatida Xizr раyп‘ambar obrazi talqinlari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7321
9. Eshonqulova, S. (2020). An’anaviy obrazlar genezi (Nodira ijodi misolida). *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7333
10. Eshonqulova, S. (2020). Fazilatlari olamlarga ibrat Ustozim!. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7334
11. Eshonqulova, S. (2020). Nodira ijodida Sulaymon obrazi tasviri . *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7346
12. Turopova, P. (2020). Shoirlari bor el yashar. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5427
13. Turopova, P. (2020). Ona Vatanga mehrim. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5428
14. Turopova, P. (2020). She’riyat va sadoqat malikasi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5430

15. Turopova, P. (2020). Sehrli dunyoga sirli sayohat. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5431
16. Turopova, P. (2020). Ma'naviyat–ma'rifat kaliti. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5429
17. Turopova, P. (2020). Qaytar dunyo. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5433
18. Turopova, P. (2020). Alisher Navoiyning xayolot dunyosi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(43). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5434
19. Turopova, P. (2020). Adabiyotda ayol madhi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5435
20. Turopova, P. (2020). Alisher Navoiy "Xamsa"sida fantastika ko'rinishlari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5437
21. Turopova, P. (2020). Jizzaxlik ijodkorlar asarlarida 1916 yildagi qo'zп'olonlar bilan boп'liq o'rinlar. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5438
22. Turopova, P. (2020). Jomiyning "Bahoriston"i-axloqiy tarbiya manbai. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5440
23. Turopova, P. (2020). Shahlo Ahrorova she'riyatida Vatan tahlili. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5442
24. Turopova, P. (2020). Sharof Rashidovning publitsistikasida adabiy-estetik ideal. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5465
25. Turopova, P. (2020). Sharof Rashidovning Jizzax qo'zп'oloniga baп'ishlangan "Ravshan" dramasi talqinlari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(45). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5467
26. Turopova, P. (2020). Hamid Alimcan Eserlerinde Edebi-Estetik İdeal Kategorisi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5469
27. Turopova, P. (2020). Ehtirom. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(41). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5472
28. Turopova, P. (2020). Adabiy jarayon: folklor va badiiyat. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(43). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5476
*29.* Turopova, P. (2020). Adabiy–estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayoni (Jizzaxlik ijodkorlar misolida). *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(45). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5477

*30.* Turopova, P. (2020). Jizzax adabiy muhitida ijtimoiy davr va shaxs ma’naviyatini aks ettirilishi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(82). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7291
31. Soatova, N. (2020). Navoiy idealidagi shoh, yoki komil mamlakat rahbari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(51). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5027
32. Soatova, N. (2020). “Farhod va Shirin” dostoni va “O‘tkan kunlar” romanining qiyosiy tadqiqi . *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(55). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4668
33. Soatova, N. (2020). Badiiy adabiyotda an’anaviylik va novatorlik. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(45). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5357
34. Soatova, N. (2020). Shuhrat she’riyatida xalq ohanglari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(09), 5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2683
35. Soatova, N. (2020). Shuhrat she’riyatida xalq ohanglari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(09), 5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2683
36. Soatova, N. (2020). Satirachilikda an’ana va izdoshlik. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *22*(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2094
37. Soatova, N. (2020). Sakkokiy hayoti va ijodini o‘rganilishi haqida. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(45). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5366
38. Soatova, N. (2020). “Shuhrat hayoti va ijodi” mavzusiga doir texnologik xarita. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(09), 3. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2673
39. Soatova, N. (2020). Adabiyot darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(09), 5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2677
40. Soatova, N. (2020). “Shinelli yillar” romanida vatanparvarlik va insoniy tuyп‘ularning aks etishi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(09), 4. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2684
41. Soatova, N. (2020). Yuksak huquqiy madaniyat asosi-huquqiy tarbiya. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(67). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3626
42. Soatova, N. (2020). Ustozga ehtirom. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(53). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4736
43. Soatova, N. (2020). Munaqqash tuyп‘ular sehri. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(55). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4662
44. Soatova, N. (2020). “Ruboiylarida aks etgan hayot”. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(67). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3620

45. Soatova, N. (2020). Qo‘qon adabiy muhitida Amiriyning tutgan o‘rni. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(54). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4739
46. Soatova, N. (2020). Tarixi anbiyo va hukamo” asarida payп‘abarlar ta’rifi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, *1*(48). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5158